

**INGLIZ TILINI O'RGATISH JARAYONIDA STANDART TIL  
BIRLIKLARI VA MASHHUR IBORALARDAN FOYDALANISHNING  
SEMANTIK JIHATLARI**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti Chet tillar 1 kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Maxmudova Shaxlo Mizrobovna**

**shaxlossha2022@gmail.com**

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola tilshunoslik uchun dolzarb masalardan biri atrofida fikr yuritadi. Ingliz tilida standart til birliklari o'ziga xos xususiyatga ega, alohida birliklar sifatida yuritiladi. Mashhur iboralar xalqning turmush tarzi va kelib chiqishi haqida ma'lumot beruvchi asosiy birliklar sifatida qo'llaniladi. Har bir til frazeologizmlari shu tilda so'zlashuvchi xalq madaniyatoga xos unsurlarga boy asos hisoblanadi va shu bilan birga shu tilning shakllanishiga sabab bo'ladigan omillar haqida so'zlaydi. Mazkur maqolada biz standart til birliklarning ba'zi bir yangi xususiyatlardan xabardor bo'lamiz. Shu bilan birga standart til birliklarning leksik-semantik xususiyatlari, ularning o'ziga xos xususiyatlari va tildagi ahamiyati ko'rib chiqilgan va misollar bilan ko'rsatilgan. Maqolada standart til birliklarining semantikasini o'rganish jarayoni hamda bosqichlarining tasnifi yaqqol namoyon bo'ladi. Mashhur iboralar va standart til birliklarini ingliz tilida talqini nafaqat zamonaviy tilshunoslikning bir bo'lagi sifatida semantik jihatdan o'rganilib, bu til tizimida o'zining dolzarbliji bilan muhim rol o'yaydi. Shuni ham aytish kerakki, ko'pgina lingvistlarni qiziqtirgan ushbu masalada mashhur iboralar hamda standart til birliklari maqola obyekti sifatida o'z o'rniga ega. Ularning semantik jihatlarini ilmiy-nazariy manbalar asosida atroflicha o'rganish tilshunoslikning bugungi kun masalasi ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Lug'at, semantika, frazeologiya, xususiyat, birlik, mashhur iboralar, tilshunoslik.*

Jahonda ta'lim XXI asrda barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil

sifatida e'tirof etilib, Koreya Respublikasida o'tkazilgan Xalqaro ta'lism forumida 2030-yilgacha belgilangan konsepsiyada “butun hayot davomida sifatli ta'lism olishga imkoniyat yaratish” kabi dolzarb masalalarga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaydi. Bu esa, mutaxassislar tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirishni nazarda tutmoqda. Bu ta'lism jarayonining o'quv modullari mazmunini didaktik vositalar asosida takomillashtirish, ta'lism resurslari orqali axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha kompetentlikni rivojlantirish modelini takomillashtirish va shu asnoda o'qitish metodikalarini takomillashtirish zarurati mavjudligini bildiradi.

Respublikamizda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida mutaxassislar tayyorlash tizimini xalqaro malaka talablari asosida tashkil etish va kredit-modulli texnologiyani joriy etish, o'qitish sifatini oshirish, elektron va mobil ta'limi jahon zamonaviy talablari asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi. Qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda “chet tillar kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish”, “yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lism muassasalarida kompetentli ilmiy-pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish” kabi ustuvor vazifalar belgilandi. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi jarayonida mutaxassislarda intellektual bilimlar zaxirasini puxta egallash, ingliz tilidagi til birliklari va mashhur iboralardan foydalanish orqali universal kompetensiyalarni rivojlantirish va kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengaydi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamiagi islohotlar aholining barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarning sifatli ta'lism olishlari, kelgusidagi kasbiy sohasining sir-asrorini mukammal egallashlari, milliy an'ana va qadriyatlarimizni qadrlaydigan ma'naviy yetuk avlodni voyaga yetkazish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli mutaxassis kadrlarni yetishtirish uchun zamin yaratmoqda.

Nolisoniy ta'lism muassasalari talabalarida ingliz tilidagi standart til birliklari va mashhur iboralardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat

kasb etadi. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish ko'p jihatdan bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashda ularning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishlar negizida universal kompetensiyalarga ega bo'lgan, og'zaki nutq malakalarini egallagan, suhbatdoshi va muloqotga kirishuvchilarga o'z fikrini erkin bayon qila oladigan shaxslarga ehtiyoj mavjud. Bu esa, aynan ingliz tilidagi standart til birliklari va mashhur iboralardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali samarali kechadigan didaktik jarayon hisoblanadi.

Chet tillarini o'qitish metodikasida Yevropa tillarini o'qitish usullari va metodikasi ma'lum. Rossiyada XIX-asr o'rtalari va XX-asr boshlarida ta'lim muassasalari talabalarini tomonidan qadimiy va yangi chet tillarining ta'lim va tarbiyaviy ta'siri o'rganilgan bo'lib, Fransiya, Germaniya, Angliya antik davri va adabiyotining klassik asarlarini, o'rganilayotgan til mamlakati tarixini, uning adabiyoti tarixini o'zlashtirish jarayonida amalga oshirilishiga oid ilmiy qarashlar paydo bo'ldi. Ushbu nazariyalar zamirida o'rganilayotgan til tizimiga yaxlit qarash, talabalar o'qish va nutq ko'nikmalarini o'zlashtirishi, boshqa xalqlarning tarixi, an'analari, hayoti bilan tanishish, uning madaniy merosini o'zlashtirish, boyitishga xizmat qilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, tahsil oluvchilarni boshqa tillarga hurmat bilan qarashga o'rgatish, shuningdek, chet tili madaniyati, o'zga tillarga hurmat, to'liqroq filologik bilim olish istagini tarbiyalashi lozim.

Nolisoniy ta'lim muassasalari talabalarida ingliz tilidagi standart til birliklari va mashhur iboralardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yuqoridagi turdagи vazifalar bilan cheklanib qolmasdan, vazifalarning murakkabroq versiyalarini, shuningdek, muloqot, professional muloqot, axborot va akademik ko'nikmalarni birlashtiradigan vazifalarni o'z ichiga oladigan topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, insho yozish uchun audio matndan mos argumentlar yoki misollarni tanlash, yozib olingan matnning konsepsiya xaritasini tuzish, taklifni to'ldirish, o'z ma'ro'za matnlarini tayyorlash, ma'lumotlarni ma'lum mezonlarga ko'ra tasniflash va boshqalar. Ingliz tilini o'qitishda talabalarning bilimlarni mukammal o'zlashtirish qobiliyatlarini rivojlanishida muhim omillardan biri ijodkorlik sifatlarini shakllantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, nolisoniy ta'lif muassasalari talabalarida ingliz tilidagi standart til birliklari va mashhur iboralardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish o'quv jarayonining markazida ko'plab noyob shaxsiy xususiyatlarga ega, obyektiv voqelikda va uning subyektiv ichki dunyosida sodir bo'layotgan narsalarga hissiy va ijtimoiy reaksiyalarga ega bo'lgan noyob shaxs sifatida namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi.

Universitetlarda talabalar ingliz tilidagi o'quv materialini samarali o'zlashtirishida ingliz tilidagi standart til birliklari va mashhur iboralar o'rganilayotgan til mamlakati madaniyatining roli va ahamiyatini, uning vakillari bilan muloqotning lingvokulturologik va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini tan olishga xizmat qiladi. Chunki, barcha ma'lumotlarning madaniy tarkibiy qismi insonga o'z xalqining tili, adabiyoti orqali keladi, ya'ni u tomonidan intellektual, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlar uchun yaratilgan badiiy matn ahamiyati muhimdir. Binobarin, ingliz tili bo'yicha tashkil qilingan integratsiyalashgan mashg'ulotlar talabalar dunyosining global manzarasini yaratishga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullayeva Sh.A. O'spirinlarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni bartaraf etish. Monografiya.- T.: Fan va axborot texnologiyalari, 2016-yil.-184 b.
2. Abdullayeva Sh. A., Uzoqov A. M. Uzluksiz ta'lif tizimi tahsil oluvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash: prinsiplar, bo'shliqlar, tajriba // J.: Uzluksiz ta'lif, 2020-y. № 6.- B.-12-19.
3. Абдуллаева Б.С. Развитие компетентности у будущих учителей//Вестник Самарского Государственного Технического Университета. Серия «Психолого-педагогические науки», 2022. Т. 19. № 4. С. 149–158..
4. Akhmedova G. Role of motivation of university students in the educational process International Journal of Research with ISSN 2348-6848 Vol.

7 Issue 4 Month April.-45-p.

5. Axunov M.M. Ingliz va o'zbek tillarida qo'shma so'zlarning so'z yasash tizimida tutgan o'rni/ Innovative, educational, natural and social sciences ISSN: 2181-1784 www. oriens.uz/ASI Factor July, 2023.-P.-78-83.

6. Барановская Роль текстовой деятельности при обучении иностранным языкам/-:Иностранные языки,2021 № 13.- С. 45-55